

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA SO'Z YARATISH JARAYONIDAGI FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

Farg'ona davlat universiteti, rus tili metodikasi o'qituvchisi

Xamidova Maxbuba Kaharovna

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va

tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiyaminova Ohistabonu Hamidullo qizi

ohistailmiyaminova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va rus tillarining so'z yasash tizimi qiyosiy jihatdan tahlil etiladi.. Unda har ikki til morfemikasida affiksatsiya usuli orqali so'z yasashdagi o'xshashliklar hamda agglutinatив va flektiv tuzilmalar, prefikslarning mavjudligi, qo'shma so'z yasashdagi farqlar ilmiy asosda yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari til o'rganish va tarjima amaliyotida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi..

Kalit so'zlar: so'z yasash, o'zbek tili, rus tili, affiksatsiya, agglutinatивlik, flektivlik.

Til – inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy merosining asosiy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir til o'zining ichki tuzilishi, grammatik tizimi va leksik imkoniyatlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. So'z yasash har qanday tilda muhim lingvistik hodisa sanalib, u til tizimining o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Bu jarayon, shuningdek, tilning leksik boyligini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek va rus tillari har xil til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ular orasida muayyan o'xshashliklar va aniq farqlar mavjud. Ushbu ikki tilning tarixiy hamda madaniy aloqalari, ularning lingvistik jihatdan qiyosiy o'rganilishini talab etadi. Xususan, o'zbek tili – oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga, aniqrog'i, qarluq

guruhiga kiruvchi agglutinatív tuzilishga ega til hisoblanadi. Rus tili esa hind-yevropa tillar oilasining slavyan tillari turkumiga, ya'ni sharqiy slavyan tillari guruhiga mansub bo'lib, flektiv tizimli til sifatida tavsiflanadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari hamda ko'p tillilik holatining kengayib borayotgani sharoitida mazkur mavzu alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarning jadallik bilan rivojlanib borishi natijasida ikki tilning qiyosiy tahlili, ayniqsa, so'z yasash tizimi nuqtayi nazaridan o'rganilishi va tarjima jarayonida to'g'ri qo'llanilishi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul asosida o'zbek va rus tillarida so'z yasashga oid grammatik manbalar hamda amaliy matnlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida o'zbek tilining izohli lug'ati, rus tilining izohli lug'ati, grammatik qo'llanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlar asosiy manba sifatida foydalanildi. Har ikkala tilga oid matnlar va leksik birliklar asosida ularning morfologik va semantik xususiyatlari taqqoslab o'rganildi. Shu bilan birga, so'z yasashning tarjima amaliyotidagi roli va uning lingvistik ahamiyati ham alohida baholandi.

O'zbek va rus tillari har xil til oilalariga mansub bo'lishi (mos ravishda — turkiy va slavyan) hamda tuzilma jihatidan farqlanishiga qaramay, ularning so'z yasash tizimida ayrim umumiyliklar mavjud. Xususan, har ikki tilda affiksial (qo'shimchalar yordamida) so'z yasash usuli asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, o'zbek tilida ko'rimsiz, terim, quruqchilik, terimchi kabi so'zlar affikslash yo'li bilan yasalgan bo'lsa, rus tilida работник, читатель, строитель kabi so'zlar xuddi shu usulda hosil qilingan

Bundan tashqari, so'z yasashda kompozitsion usul — ya'ni ikki yoki undan ortiq mustaqil morfemani birlashtirish orqali yangi so'zlar hosil qilish usuli ham mavjud. Bu usul o'zbek tiliga ko'proq rus tili ta'siri orqali kirib kelgan bo'lib, rus tilida самолёт (сам + лёт, interfiks -o-), паровоз (пар + воз, interfiks -o-) kabi so'zlar misol bo'la oladi. O'zbek tilida esa toshbaqa, otquloq, xonqizi kabi so'zlar ushbu usulda yasalgan. Har ikki tilda semantik usul orqali so'z yasash holatlari ham uchraydi. Bunda bir so'z bir nechta, bir-biridan farqli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, rus

tilida лист (barg va qog‘oz), три (son va fe‘l), o‘zbek tilida esa ot (hayvon va harakatni bildiruvchi fe‘l), chang (musiqa asbobi va tuproqdagi mayda zarracha) kabi misollar bu holatni isbotlaydi

Shunga qaramay, ikki til orasida sezilarli tafovutlar ham mavjud. O‘zbek tili agglutinatив tuzilishga ega bo‘lib, unda qo‘shimchalar qat‘iy ketma-ketlikda qo‘shiladi va har bir qo‘shimcha alohida grammatik ma‘noga ega. Rus tili esa flektiv tuzilishga ega bo‘lib, morfemalar shakli o‘zgaruvchan, urg‘u o‘rnining o‘zgarishi esa grammatik ma‘no farqini keltirib chiqaradi. Masalan, беpera – “qirg‘oqning” (род. п., ед. ч.), беpera – “qirg‘oqlar” (им. п., мн. ч.) misolida bitta -a morfemasi urg‘u o‘rniga qarab butunlay boshqa grammatik shakllarni bildiradi. Shuningdek, rus tilida prefikslash – ya‘ni old qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilish (masalan: подыграть, разбить, безвкусный) faol usullardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida esa bu usul mavjud bo‘lsa-da, hozirda kam qo‘llaniladi. Tarixiy jihatdan prefikslar orqali yasalgan so‘zlar bugungi kunda ko‘pincha tub so‘z sifatida qabul qilinadi: noumid, nofaol kabi. Ushbu tahlillar rus tilini chet tili sifatida o‘rganayotganlar, tarjimonlar va tilshunoslar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, til o‘rganish va tarjima jarayonida morfologik xususiyatlarni to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, o‘zbek va rus tillarining so‘z yasash tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar ushbu tillarni o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun muayyan qulayliklar yaratadi. Xususan, affiksal va kompozitsion usullarning har ikki tilda mavjudligi, semantik kengayishlar orqali so‘z yasash kabi umumiy jihatlar til o‘zlashtirish jarayonini soddalashtiradi. Shu bilan birga, bu tillarning turli til oilalariga mansub ekani ularning so‘z yasash tizimidagi sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. O‘zbek tilining agglutinatив, rus tilining esa flektiv tuzilishga egaligi, shuningdek, prefikslash usulining rus tilida faol, o‘zbek tilida esa cheklangan qo‘llanilishi bu farqlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, o‘zlashma so‘zlarning kelib chiqish manbalari ham til leksikasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tarjima bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun ushbu tafovutlarni to‘g‘ri anglash va tarjima jarayonida hisobga olish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada keltirilgan qiyosiy tahlillar

o‘zbek va rus tillarini o‘rganuvchilar uchun nafaqat nazariy bilim manbai, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, til tizimini ichki struktura asosida chuqur tahlil qilish tarjima sifatini oshirish, lingvistik tadqiqotlarda esa kompleks yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Foydlanilgan adabiyotlar

1. Azim Hojiyev “O‘zbek tilida so‘z yasalishi tizimi”, 7-8-bet, “O‘qituvchi”, Toshkent – 2007
2. Кемпель. Е. В. «Роль ударения в формообразовании имён существительных в русском языке» <https://studconf.com/download/2302/>
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2006–2008.
4. O‘zbek tilining grammatikasi. 2 jildlik. – Toshkent: Fan, 1992.
5. Русский язык: Энциклопедия / Под ред. Н.Ю. Шведовой. – Москва: «Советская энциклопедия», 1998.
6. Зализняк А.А. «Грамматический словарь русского языка». – Москва: Русский язык, 2003.
7. Бабайцева В.В. «Современный русский язык. Морфология». – Москва: Дрофа, 2005.
8. Khoshimov N. «O‘zbek tilshunosligi asoslari». – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
9. Karimov O. «Leksikologiya va frazeologiya». – Toshkent: Fan, 2011.
10. “So‘z yasashda ikki dunyo: o‘zbek va rus tillari o‘rtasida o‘xshashlik va tafovutlar” maqola Botirova Ruxshonaxon